

10-10-2019

PRINCIPLES OF DIFFERENTIATION OF PERIPHRASAL AND EUPHEMIC UNITS

Zaynura Zayniddinovna Kadirova
NamSU

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Kadirova, Zaynura Zayniddinovna (2019) "PRINCIPLES OF DIFFERENTIATION OF PERIPHRASAL AND EUPHEMIC UNITS," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 10 , Article 51.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/51>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

PRINCIPLES OF DIFFERENTIATION OF PERIPHRASAL AND EUPHEMIC UNITS

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

PERIFRAZA VA EVFEMIK BIRLIKLARNI FARQLASH TAMOYILLARI

Qodirova Zaynura Zayniddinovna

Annotatsiya: maqolada perifraza va evfemizmga xos xususiyatlar hamda bu ikki hodisaning o'xshash, farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'z: Evfemizm, individuallik, ko'chim, obrazli ifoda, perifraza, gender xususiyat, badiiylik, ta'sirchanlik, tabu

ПРИНЦИПЫ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ПЕРИФРАЗИЧЕСКИХ И ЭВФЕМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Кадырова Зайнура Зайниддиновна

Аннотация: в статье описываются периферические и эвфеме-специфические особенности и сходства между этими двумя явлениями.

Ключевые слова: эвфемизм, индивидуальность, переводимое выражение, perifraza, гендерная особенность, художественность, чувственность, табу.

PRINCIPLES OF DIFFERENTIATION OF PERIPHRASAL AND EUPHEMIC UNITS

Kadirova Zaynura Zayniddinovna

Abstract: The article describes the peripheral and eupheme-specific features and the similarities between these two phenomena.

Key words: euphemism, individuality, translatable expression, paraphrase, gender, artistry, sensuality, tabu.

Nutq vaziyatida jamiyat voqea-hodisalarini davr yoki ayrim o'rinlarda vaziyatga mos tarzda bayon etish va ifoda usullarini to'g'ri tanlashga ehtiyoj seziladi. Shunday paytlarda nutqda avvaldan tayyor, umumiste'moldagi turg'un ifoda vositalari, xususan, ibora, perifraza, idioma, evfemizm, disfemizm kabilarga murojaat qilinadi. Bu birliklar nutqimizni bezash barobarida emotsional-ekspressivlik va milliy mentallikni ifodalash vositasi hisoblanadi. Mazkur birliklarning shakllanishi va rivojlanishi deyarli bir xil bo'lib, bajaradigan vazifasiga ko'ra farqlanadi, xolos. Ushbu maqolada perifraza va evfemizmning o'xshash va farqli jihatlari, ularning nutqiy vazifasi haqida to'xtalamiz.

Evfemizm (yun. *yumshoq ifodalash*) — so'zlovchiga aytish noqulay, noo'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsigaga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlikni ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan-to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish, noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi [1. 146]. Pragmatik jihatdan noo'rin deb hisoblangan tushunchalarni axloqiy qarashlar yo'l qo'yadigan tarzda ifoda etishda shaxs tuyg'usi va dunyoqarashi

ham muhin ahamiyat kasb etadi. Masalan, sha'riy turmush tarzini qo'llovchi ayollar uchun *er tushunchasi* qo'pol yoki uyatli hisoblanadi. Shu o'rinda *turmush o'rtoq, xo'jayin, umr yo'ldosh (dadasi, otasi, kuyovingiz)* variantlari tanlanadi.

Evfemizmning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: Pragmatik vaziyat: erkaklar ham mavjud bo'lgan nutqiy vaziyatda ayollar nutqida *tug'moq* o'rnida *ko'zi yorimoq, chaqali bo'lmoq, bolali bo'lmoq, qo'lga olmoq, ko'payishmoq* kabi birliklar qo'llaniladi;

1. Din va shariyat: kundalik hayotda qo'llaniladigan yuvinmoq, cho'milmoq atamaları o'rnida diniy nutqda *g'usl qilmoq* tushunchasi qo'llaniladi;

2. Mentalitet va milliylik: o'lmoq tushunchasi o'rnida *jon bermoq, vafot etmoq, xudo dargohiga ketmoq* kabi tushunchalar qo'llaniladi;

3. Soha va kasb-kor: o'quvchilar nutqida ikki baho o'rnida *dumli besh* birikmasi qo'llaniladi.

4. Siyosat: Farg'onada 1989 - yilda yuz bergan hunrezlik va to'polonlar *Farg'ona voqealari* nomi bilan aytiladi.

Evfemizmlar nutqimizning deyarli barcha uslublari uchun xos bo'lgan hodisadir. Barcha uslubda evfemistik birliklar kuzatiladi.

Ya'ni, og'zaki so'zlashuv uslubida aroq mast qiluvchi ichimlik, hamma yomonliklarning onasi bo'lganligidan nutqda *ichimlik, shisha, yarimta, qadah, obirahmat, obihayot, obizamzam* kabi nomlar bilan atalgan[6.54].

Badiiy uslub uchun xos bo'lgan jozibadorlik, estetik zavq hosil qiluvchi vosita sifatida ham evfemizmlar qo'llaniladi. Masalan, Muhammad Alining:

*"Sadaf komi ichra to'lib qatralar,
Paydo bo'ldi uning bag'rida gavhar"*

misrasida badiiy evfemistik vosita qo'llanilgan bo'lib, *gavhar* termini homila termini o'rnida ishlatilgan.

Ilmiy uslub ham evfemizm hodisasidan mustasno emas. Ya'ni jinni o'rnid, *ruhiy nuqsonli, aqli zaif* kabi birliklar qo'llaniladi[6.50].

Fikrlar maxsus qoliqlar asosida bayon qilinadigan rasmiy- idoraviy uslubda qo'llaniluvchi o'ldirmoq tushunchasiga nisbatan *qatl etmoq* evfemizmi faoldir.

Publisistikada esa mavzu bayoni insonni jumbushga keltirmasligi uchun 1999-yil 16-fevralda sodir bo'lgan qo'poruvchilik, qonto'kilishlar o'rnida *fevral voqealari* birikmasidan foydalaniladi.

Tilshunoslikda aynan evfemizmga yondosh hodisa sifatida yuzaga kelgan, *"chiroyli so'zlamog", "obrazli so'zlamog"* ma'nolarni anglatuvchi perifraza ayrim jihatlariga ko'ra evfemaga o'xshaydi. Perifrazalar ham shakllanishi va tuzilishi jihatidan turlarga bo'lib o'rganiladi. L.N. Sinelnikova perifrazalar 4 xil usul bilan hosil bo'lishini ta'kidlaydi [2]:

1. Mantiqiy usulda: *dala malikasi* - makkajo'huri.

2. Sinekdoxa usulida: *shoxli sarkarda-Iskandar Zulqarnayn*

3. Mualliflik usulida: *Amerika kashfiyotchisi-Xristofor Kolumb*

4. Nomlash va ekspressivlikni oshirish usuli bilan: *sariq sochli bola* – to'lin oy.

Bundan tashqari tilshunoslikda perifrazalarning metanomik perifrazalar (*oq halatlilar* – hamshiralar), evfemistik perifrazalar (*o'lmoq* – *boqiy dunyoga ketmoq*),

disfemistik perifrazalar (ruslarda o‘l – *qutida o‘yna*; o‘zbeklarda – *atrofingga gul ekay*), an’anaviy perifrazalar (er yoki xotin – *jufti halol*) va mualliflik perifrazalari (*g‘azal mulkining sultoni* – Alisher Navoiy (M.Shayxzoda ijodida) kabi turlari ham farqlanadi.

Moskvinning fikricha, perifraza kamida ikki komponentdan iborat bo‘lishi kerak. Shu jihatiga ko‘ra ikki va uch (undan ortiq) komponentli perifraza kabi turlarga ajratadi[7].

O‘zbek tilshunosligida evfemizm va perifraza tadqiqi olimlar tomonidan olib borilayotganiga qaramay, tasniflash o‘rinlarida o‘zaro o‘xshashliklarning mavjudligi bois ayrim chigalliklar ko‘zga tashlanib qoladi. Evfema, perifraza va tabularni ajratish mukammal emasday ko‘rinadi. Masalan, ota so‘zi o‘rnida qo‘llaniluvchi padari buzrukvor; ona so‘zi o‘rnida qo‘llaniluvchi volidayi muhtarama, podshoh so‘zi o‘rnida oliy hazratlari; biyning o‘rnida qo‘llaniluvchi qoraqurt[6.14], baqaloq, semiz, dumaloq so‘zlari o‘rnida qo‘llaniluvchi to‘lachadan kelgan lisoniy birliklar aslida qanday hodisa ekanligini dalilli ajratishga ehtiyoj seziladi. Shu o‘rinda har uchala atamaning ham tilshunoslikdagi izohini keltirish o‘rinli bo‘lar edi. Ya‘ni, “perifraza” yunoncha “*siqilgan nutqning batafsil, keng tushuntirilgani, so‘zni boshqa bir so‘z bilan ifodalash, bir so‘zni izohlash uchun so‘zlarni o‘zgartirish*”[3.14], “*so‘z bezagi*” degan ma‘noni anglatadi. Bunda so‘zni keng ifodalar bilan almashtirish yoki tushunchani boshqa tushunchalar yordamida kengroq ifoda etish tushuniladi[3.101]. Bir so‘zni badiiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan boshqa birikma bilan atashdir. Perifrazada salbiylik yoki ijobiylik ahamiyat kasb etmaydi. Suvga nisbatan *hayot manbai*, bug‘doyga nisbatan *baraka urug‘i* birikmasining qo‘llanilishi aynan perifraza hodisasi hisoblanadi.

“*Evfemizm*” yunoncha “*yaxshi gapiraman*”. Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash. Masalan, *ikkikat, bo‘g‘oz* so‘zlari o‘rnida *homilador, og‘ir oyoqli* kabi ekvivalentni qo‘llash[4.131].

“*Tabu*” - diniy e‘tiqod, irim, qo‘rqish va shu kabilar ta‘sirida so‘zning ishlatilishini cheklash yoki man etish; ishlatishda cheklangan, man etilgan so‘z. Masalan, *chayon* so‘zi o‘rnida eshak, oti yo‘q so‘zlarining qo‘llanishi [4.101].

Yuqorida keltirilgan ta‘riflardan shu narsa aniq bo‘ladiki, *padari buzrukvor, volidayi muhtarama va oliy hazratlari* - perifraza; *ilon leksemasi* o‘rnida *gazanda, uzunchaning qo‘llanilishi tabu; baqaloq, semiz, dumaloq* so‘zlarining o‘rnida *to‘lachadan kelgan* birikmasi evfemizm ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Ayrim o‘rinlarda *biy* tushunchasi o‘rnida *qoraqurt* leksemasining qo‘llanilish tabu sifatida qabul qilinadi[6.14]. Lekin *biy* va *qoraqurut* ikki xil xasharot hisoblanadi, shuning uchun birining o‘rnida ikkinchisining qo‘llanilishi noo‘rin. Ya‘ni, *biy*-uzunligi 3-5 santimetr keladigan, usti uzun sariq tuk bilan qoplangan zaharli katta o‘rgimchak. *Qoraqurut*- bo‘g‘imoyoqlilar tipining o‘rgimchaksimonlar urug‘i vakili; usti baxmalga o‘xshash, qora tusli; faqat urg‘ochisi zaharli bo‘ladi [5.341].

Tilshunoslikda perifraza va evfema quyidagi jihatlari bilan o‘zaro o‘xshashlik hosil qiladi. Ya‘ni:

1. Har ikkisi ham ko‘chim asosida hosil bo‘ladi;
2. Birikma holatda yuzaga kelishi mumkin;
3. Badiiy bo‘yoqdorlikka ega;

4. Ayrim o'rinlarda izohlanuvchi notanish va tushunarsiz bo'ladi;
5. Mavhumlik va individuallikka ega.

Yuqorida keltirilgan o'xshashliklardan bu hodisalarning aynan bir xil vazifa bajaradi degan xulosaga kelish noto'g'ri. Chunki, aynan, farqlarni anglab yetish muhim ahamiyat kasb etadi va tilshunoslik nuqtayi nazaridan perifraza va evfemizmni alohida birlik sifatida tushuntirishga asos bo'ladi.

Perifraza va evfemizmning quyidagi farqlari mavjud:

Perifraza	Evfemizm
Obrazali ko'chim;	Yumshoq ifoda;
nutqni estetik zavq beruvchi birikma bilan almashtirish;	aytish noo'rin hisoblangan tushunchani vaziyatga mos birikma bilan almashtirish;
badiiy ko'chim kuchli;	pragmatik vaziyat muhim ahamiyatga ega;
omonimlik nisbatan ustun	sinonimlik hodisasi ko'proq ko'zga tashlanadi;
kamida ikki komponentdan tarkib topadi	bir komponentli evfemizmlar ham mavjud;
individuallik muhim ahamiyatga ega	gender, yosh, ijtimoiylik birlamchi
badiiy va publisistik nutq uslubi uchun xos	barcha nutq uslublarida faol qo'llaniladi

Tilshunoslikning keng o'rganilgan, o'rganilishda davom etayotgan va hali hanuzgacha tadqiqotga ehtiyoj sezayotgan, doimiy o'zgarib, yangilanib turuvchi, jamiyat ehtiyojiga xizmat qiluvchi boyliklari jamlangan leksikologiya bo'limi xazinadir. Bu xazinani boyitib, soxta dur-u gavharlardan tozalab borish har bir shaxsning burch va mas'uliyati hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 10-tom 2005.
2. Sinelnikova L. N. K voprosu o sushnosti perifrazi kak funktsionalno-semanticheskoy ediniti. - M., 1972. – 304 s.
3. Dal.V.I.Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika. 3-tom.– M., 1882.
4. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent, 2002
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy ineklopediyasi Dav. ilmyu nashriyoti. (2006-2008)
6. Omonturdiyev A.J. O'zbek nutqining evfemik asoslari.- Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. – 128 b
7. Moskvina B. Virazitelnie sredstva sovremennoy russkoy rechi: tropi i figuri. Obshaya i chastnie klassifikatsii. Terminologicheskiy slovar.– M: Lenand, 2006.– 376 c.